

## KONSTITUTSIYA — ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

**Inatullayeva Intizor Jamshid qizi**

*TDIU Moliya fakulteti MMT-51/24 guruh talabasi*

+998 93 690 79 94, [inatullayevaintizor@gmail.com](mailto:inatullayevaintizor@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining erkin va farovon hayotni ta’minlashdagi huquqiy ahamiyati ilmiy-nazariy va tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda Konstitutsiyaning qabul qilinishi va rivojlanish bosqichlari, mustaqil davlat suverenitetini mustahkamlashdagi o‘rni hamda 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan asosiy konstitutsiyaviy tamoyillar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, inson huquqlari, erkin va farovon hayot, huquqiy davlat, konstitutsiyaviy tajriba, fuqarolik jamiyati.

### Kirish

Konstitutsiya shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qiladi. “Konstitutsiya” lotincha “constitution” so‘zidan olingan bo‘lib, “belgilash”, “tuzilish” degan ma’nolarni anglatib, qonunlar va boshqa normativ hujjatlar orasida asosiy o‘rin tutadi va amaldagi qonunlar uchun yuridik asos hisoblanadi. Tarix solnomasiga nazar tashlar ekanmiz, XX asrning so‘nggi yillarida yurtimiz tarixida mutlaqo yangi sahifa ochilganining guvohi bo‘lamiz. Chunki, qanchadan-qancha vatandoshlarimizning azaliy orzusi bo‘lgan hurlik va erkinlikka erishdik. Har qanday davlat o‘z mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya va davlat ramzlari bilan mustahkamlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi ustida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidagi 64 kishidan iborat maxsus komissiya ishladi. Natijada, 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat Konstitutsiyamiz qabul qilindi. 1992-yil 8-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qildi. [1]

Vaqt o‘tishi bilan davlat taraqqiyoti, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar yangi huquqiy talablarni yuzaga keltirdi. Shu sababli, Konstitutsiyaning samarali qo‘llanilishi va zamon talablariga moslashishi uchun uning mazmuni va normalarini yangilash zarurati tug‘ildi. Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi orqali Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy huquqiy asoslari yaratildi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga “Advokatura” bobi qo‘shilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat. Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilinishi esa Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida huquqiy islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

### Asosiy qism

Insonlar doim o‘zlarining haq-huquqlari uchun kurashib kelganlar. Insoniyat tarixida insonlarning munosib hayot kechirishga huquqi borligi yoqlangan ko‘plab ta’limot va nazariyalar vujudga kelgan. Uyg‘onish davri mutafakkiri, Sharqning mashhur huquqshunoslaridan biri va “Hidoyat yo‘lining sarboni” bo‘lgan-Imom Burhoniddin al-Marg‘inoniyning har bir insonning tabiiy huquqlariga, u ana shu davlatning fuqarosi ekanligi yoki aksinchaligidan qat’i nazar, rioya etilishini qonunlashtirish va ta’minlash zarurligi to‘g‘risidagi g‘oyasini yoqladilar. Xuddi ana shu davrdan e’tiboran, davlatga mutlaqo boshqacha – shaxs huquqlarini poymol qiluvchi institut (tashkilot) tariqasida emas, balki uning inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan yondashilmoqda. [2] Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham, avvalo, xalq manfaati ko‘zlanyapti. Shuningdek, Kontitutsiyasimizning ikkinchi bo‘limi inson huquqlariga bag‘ishlangan va bu bo‘lim “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanganligi ham bejizga emas.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida, “Talxis-u navomisi Aflotun” (“Aflotun qonunlari mohiyati”) nomli asarga asoslanib shunday deydi: “Aflotunning aytishicha, eng mushkul ish qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdir. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni o‘rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o‘ziga foyda keltiradi”. Darhaqiqat, qonun ishlab chiqish juda murakkab jarayon. Mustaqil O‘zbekistonning asosiy qonuni yaratilgan davrga nazar tashlar ekanmiz, buning isbotiga guvoh bo‘lamiz. Bosh Qomusimiz uch ming yillik davlatchilik tajribasiga tayangan holda, shuningdek, dunyoning 100 ga yaqin mamlakatlari to‘plagan konstitutsiyaviy tajriba hisobga olinib yaratilgan. [3]

Prezidentimiz: “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo‘lidir”, deb katta vazifa qo‘ydi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada shunday deyilgan:

Har kim ta’lim olish huquqiga ega.

Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlantirishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi. [4]

Ushbu modda qo‘shimcha kiritilgan moddalardan biri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash, 2030-yilgacha bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olish, olis va chekka hududlarda yashaydigan o‘quvchilar uchun bepul avtobuslar qo‘yilishi, pedagoglarning o‘rtacha ish haqi 2 barobarga oshirilib, yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 50 % ga yetkazilishi va yurtimizdagi kitobxonlar sonini 5 millionga yetkazish kabi masalalarga alohida e’tibor berilganligi buning yaqqol isbotidir.

Konstitutsiyada ta’lim olish huquqining kengaytirilishi va inklyuziv ta’limning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ta’lim orqali inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradi, bu esa jamiyatning umumiy farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Konstitutsiyada yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu normalar davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosatini huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

### **Xulosa**

Davlatimiz rahbari aytganidek, “O‘zbekistonda mustaqil va kuchli davlat qurishdan maqsad-inson, uning huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir”. Inson qadrlining ulug‘ligi haqida Bosh Qomusimizda shunday deyilgan:

Insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas. [5]

Prezidentimiz ham har bir inson umid bilan yashar ekan, ertaga yoki undan keyin emas, bugun niyatiga yetishini, bugungi kunidan mamnun bo‘lishini xohlaydi. Xulosa qilib aytganda, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida Konstitutsiya davlat hokimiyati bilan insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonuniy mezonini o‘rnatuvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi erkin va farovon hayotni ta’minlashning mustahkam huquqiy asosi hisoblanadi. Uni o‘rganish va undagi huquq va burchlarni bilish har bir fuqaroning vazifasi bo‘lib,

Konstitutsiyaning tamoyillari erkin va farovon hayotning kafolati sifatida amalda namoyon bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Narzulla Jo ‘rayev, Akbar Zamonov “O‘zbekiston tarixi” 11-sinf Darslik, Toshkent-2018, 8-bet.
2. G.M.Tansikbayeva, V.A.Kostetskiy “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” 9-sinf Darslik, Toshkent-2019, 32-bet.
3. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” Toshkent-2016, 24-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IX bob 50-modda .
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi VII bob 26-modda.